

№ 16/42026y. 2 mart

**“O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankining
korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki
korrupsiyaga qarshi kurashishga bevosita ko‘maklashgan
shaxslarni rag‘batlantirish siyosati”ni ma‘qullash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankida ichki nazorat tizimini samarali tashkil etish, bankda korrupsiyaning har qanday ko‘rinishiga nisbatan murosasiz muhitni yaratish, bu haqda xabar berish madaniyatini shakllantirish hamda korrupsiya holatlari to‘g‘risida ma‘lumot bergan shaxslarni rag‘batlantirish orqali bank faoliyatida korrupsiyaning oldini olish va uni bartaraf etish maqsadida, bank Boshqaruvi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari tomonidan ishlab chiqilgan ichki qoidalarining amaldagi qonunchilikka mosligini ta‘minlash bo‘yicha Ekspert guruhining 2026-yil 2-martdagi 26-sonli bayoni ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. “O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankining korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga bevosita ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish siyosati” (keyingi o‘rinlarda – Siyosat) **ilovaga** muvofiq ma‘qullansin.

3. **Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati** (A. Xaitov) mazkur Siyosatni bank Kuzatuv kengashi muhokamasiga kiritish uchun tegishli hujjatlarni Korporativ boshqaruv xizmatiga taqdim etsin.

4. **Korporativ boshqaruv xizmati** (B. Merganov) ushbu Siyosat bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangandan so‘ng, tegishli hujjatlarni Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati va Ijro nazorati departamentiga taqdim etsin.

5. **Ijro nazorati departamenti** (F. Kurbanov) Korporativ boshqaruv xizmati tomonidan tegishli hujjatlar taqdim etilgandan so‘ng, ushbu qaror nusxasini bank markaziy apparatining barcha tarkibiy bo‘linmalari va bankning mintaqaviy hamda bank xizmatlari markazlariga ma‘lumot va ijro uchun yetkazilishini ta‘minlasin.

6. Siyosat bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangandan so‘ng, bank Boshqaruvining 2023-yil 23-noyabrdagi 126/4-sonli qarori 2-ilovasi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish **Boshqaruv Raisi o‘rinbosari v.b. F. Ruziyev** zimmasiga yuklansin.

Boshqaruv Raisi v.b.**Sh. Atabayev**

“Ma’qullangan”

O‘zbekiston Respublikasi
aksiyadorlik tijorat Xalq banki
Boshqaruvining
2026-yil « 2 » Mart dagi
16/9 - sonli qarori

“Tasdiqlangan”

O‘zbekiston Respublikasi
aksiyadorlik tijorat Xalq banki
Kuzatuv kengashining
2026-yil « 12 » Mart dagi
5 - sonli majlis bayoni

**O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankining korrupsiyaga
oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga
bevosita ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish
SIYOSATI**

Mazkur siyosat O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6257-sonli Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 829-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida”gi nizom talablari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida (keyingi o‘rinlarda – Bank) korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga bevosita ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish va ularni ta’qibga olinmasligi kafolatlarini belgilab beradi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu siyosatda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

korrupsiya – Bank xodimining o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan Bank xodimi manfaatlarini yoxud o‘zga Bank xodimlarining manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaviy harakatlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlarini yo‘lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo‘lishi, shu jumladan, pul, qimmatbaho qog‘oz, boshqa ko‘rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy xarakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o‘z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslar – bank xodimlari, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, yuridik shaxs hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar va shartnoma bo‘yicha hamkorlar (kontragent);

Aloqa kanallari – bank tomonidan tashkil etilgan, bankka kelib tushadigan korrupsion holatlar, huquqbuzarlik va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishga qaratilgan murojaatlarni markazlashgan holda qabul qilish, tasniflash va tizimlashtirish, o‘z vaqtida va sifatli ko‘rib

chiqilishini monitoring qilish imkonini beruvchi aloqa tizimi (ishonch telefon, elektron pochta va boshqa);

manfaatlar to'qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

pora olish – mansabdor shaxsning o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o'zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy naf ko'rishi;

pora berish – mansabdor shaxsning o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib bevosita yoki vositachi orqali mansabdor shaxsga moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etish;

poraxo'rlik – pora olish, pora berish va pora olish-berishda vositachilik qilish;

pora olish-berishda vositachilik qilish – pora olish yoki berish xususidagi kelishuvga erishishga qaratilgan faoliyat, shuningdek, manfaatdor shaxslarning topshirig'i bilan porani bevosita berish;

tamagirlik – mansabdor shaxs tomonidan fuqaroning qonuniy manfaatlariga zarar yetkazadigan xizmatiga doir harakatlarni sodir etish tahdidi ostida pora talab qilish yoki fuqaroni uning qonuniy manfaatlariga zarar keltiradigan oqibatlarining oldini olish uchun pora berishga majbur etadigan sharoitga qasddan tushirish;

rag'batlantirish – korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga ko'maklashgan shaxslarni bir martalik pul mukofoti, tashakkurnoma yoki esdalik sovg'a shaklida rag'batlantirish;

taalluqli xabar (ahamiyatli xabar) – korrupsiyaviy harakatlar va (yoki) manfaatlar to'qnashuvi haqidagi axborotdan iborat bo'lgan xabar.

2-bob. Siyosatning maqsadi va vazifalari

2. Ushbu siyosat Bankning o'z faoliyatidagi maqsadlardan kelib chiqqan holda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan holatlarni qayd qilish va rag'batlantirish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lib, asosiy maqsadlari:

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish asoslari va turlarini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish;

huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarning manfaatlari himoya qilinishiga kafolat berishni o'zida aks ettiradi.

3. Siyosatning asosiy maqsadlarini amalga oshirishdagi asosiy vazifalar:

Xodimlar yoki mijozlar korrupsiyani ko'rganda sukut saqlamasligi uchun ularda moddiy va ma'naviy qiziqish uyg'otish. Jumladan, korrupsiyaviy holat aniqlanganda, tejab qolingani mablag' yoki aniqlangan zarar, firibgarlik holatlari uchun ma'lum miqdorida mukofot berish;

halol va prinsipial xodimlarni kadrlar zaxirasiga kiritish va ularni rag'batlantirish;

xabar bergan shaxsning shaxsini qat'iy sir saqlash, xabar bergani uchun xodimni ishdan bo'shatish, boshqa lavozimga pasaytirish yoki kamsitishga yo'l qo'ymaslik choralarini o'z ichiga oladi.

3-bob. Korruptsiyaviy huquqbuzarliklarning tushunchalari va turlari

4. Mazkur siyosatda korruptsiyaga oid huquqbuzarlik deganda Bank xodimlari yoki boshqa shaxslarning bevosita va (yoki) bilvosita Bank faoliyatiga hamda uning ishchanlik obro'siga salbiy ta'sir qilishi mumkin bo'lgan har qanday harakatlari va (yoki) harakatsizligi tushuniladi.

5. Bank korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'yilmaslik choralarini ko'radi hamda korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarning xolis, to'liq va har tomonlama ko'rib chiqilishi va ular yuzasidan adolatli qaror qabul qilinishini ta'minlaydi.

6. Korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

Bank xodimlarining Bank amaliyotlariga noqonuniy aralashuvi;

jismoniy va yuridik shaxslarning hamda Bankning mablag'larini o'g'irlanishiga, Bankka zarar yetkazilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar;

poraxo'rlik, pora olish-berishda vositachilik qilish, firibgarlik, o'g'rilik, tamagirlik va boshqa suiiste'molchilik holatlari;

yuqoridagi huquqbuzarliklar haqidagi ma'lumotlarni qasddan yashirish.

7. Xodimda u yoki bu harakat (harakatsizlik) huquqbuzarlik ekanligiga shubha tug'lsa, u Bankning vakolatli (korruptsiyaga qarshi kurashuvchi mas'ul) xodim(lar)idan maslahat so'rashga haqli.

8. Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar berayotgan shaxs tayyorlanayotgan va (yoki) sodir etilgan huquqbuzarlik to'g'risida dalillarga ega bo'lishi shart emas. Qoidabuzarliklar haqida Bankni xabardor qilish uchun har qanday shubhaga ega bo'lishi kifoya. Qoidabuzarlikni lozim darajada tekshirish va uning natijalari uchun javobgar emas.

4-bob. Huquqbuzarliklar to'g'risida xabarlarni qabul qilish tartibi

9. Bankning Korruptsiyaga qarshi kurashish xizmati Bankning aloqa kanallaridan korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida kelib tushgan xabarlarni ko'rib chiqishga mas'ul hisoblanadi.

10. Bankning aloqa kanallari, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifasi va (yoki) boshqa kanallar orqali korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida kelib tushadigan xabarlarni qabul qilish uchun Korruptsiyaga qarshi kurashish xizmati mas'ul xodimi tayinlanadi.

Bunda, mas'ul xodim korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar kelib tushganda fuqaro bilan uchrashgan holda yoxud elektron yozishma yoki telefon so'zlashuvlari orqali zarur axborotni aniqlashtiradi va ma'lumotlarni Korruptsiyaga qarshi kurashish xizmati rahbariga kiritadi.

11. Murojaatchi o'z xabarini tasdiqlash uchun qo'shimcha materiallarga, masalan, fotomateriallar, hujjatlar, audio va videoyozuvlarga ega bo'lsa, murojaatni qabul qilishga mas'ul xodim ularni taqdim etish bo'yicha foydalaniladigan aloqa kanallarini (elektron pochta yoki elektron pochta va boshqa)ni ko'rsatadi va taqdim etiladigan ma'lumotning konfidentsialligini bildiradi. Mazkur ma'lumotlar xabarga ilova sifatida rasmiylashtiriladi.

12. Bankning Korruptsiyaga qarshi kurashish xizmati mas'ul xodimi xabarni Bankda korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar haqidagi xabarlarni ro'yxatga olish reyestriga kiritadi.

13. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqidagi xabar Bankning quyi bo'g'inlariga (mintaqaviy markaz, Bank xizmatlari markazi, yagona kassa markazi va boshqa) kelib tushganda Bankning mintaqaviy markazining korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ul xodimi bu to'g'rida zudlik bilan yozma shaklda Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati rahbarini xabardor qiladi.

14. Bankning aloqa kanallaridan kelib tushgan xabarlar Bank boshqaruv raisi yoki uning o'rinbosariga ko'rsatma va (yoki) xizmat tekshiruvini belgilash uchun kiritiladi.

5-bob. Korrupsiyaviy harakatlar haqidagi xabarlarni tekshirish

15. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqidagi xabarlar Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati xodimlari yoki tayinlangan xizmat tekshiruvi asosida xizmat tekshiruvini o'tkazish uchun mas'ul xodimlar tomonidan ko'rib chiqiladi.

16. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqidagi xabarlarni ko'rib chiqish jarayoniga, harakatlari ustidan taalluqli xabar kelib tushgan yoki ko'rib chiqish jarayonida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xodimlarni jalb qilish man etiladi.

17. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqidagi xabar kelib tushganda Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati dastlabki tekshirish o'tkazib, uning taalluqliligini tahlil qiladi, ya'ni xabarda ko'rsatilgan ma'lumotning Bank tizimiga taalluqli korrupsiyaga oid huquqbuzarlikka tegishlilikini tekshiradi.

Dastlabki tekshirish xabar korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatiga kelib tushgan kundan boshlab 5 (besh) kun ichida amalga oshiriladi.

18. Korrupsiya holatlari bo'yicha xabarlarni mazmunan ko'rib chiqish Bankka kelib tushgan kundan e'tiboran 15 (o'n besh) kun ichida, tekshirish o'tkazish, qo'shimcha materiallarni so'rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'lgan hollarda, ularni ko'rib chiqish muddatlari, Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati rahbari tomonidan Bank boshqaruvi raisi yoki uning o'rinbosariga asoslantirib, kiritilgan bildirishnoma asosida istisno tariqasida uzog'i bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchiga (anonim murojaatlardan tashqari) xabar qilinadi.

19. Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati xabarni ko'rib chiqish yakunlariga ko'ra o'rganish natijalari va zarur hollarda qo'llanilgan ta'sir choralari ko'rsatilgan javob xatini belgilangan tartibda murojaatchiga, hamda qonun buzilish va jinoyat alomatlari borligi aniqlanganda, tegishli material va hujjatlar ilova qilinib huquqni muhofaza qilish organlariga yuboradi.

6-bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan shaxslarni rag'batlantirish

20. Tasdig'ini topgan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga ko'maklashgan shaxslar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi doirasida bank tomonidan bir martalik pul mukofoti va (yoki) esdalik sovg'a bilan rag'batlantirilishi mumkin.

21. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirishga bankning Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati rahbarining Bank boshqaruvi Raisi yoki uning o'rinbosariga yozgan bildirishnomasi asos bo'ladi.

22. Rag'batlantirish mablag'lari amaldagi qonunchilikka muvofiq barcha soliq va boshqa majburiy to'lovlar ushlab qolingan holda to'lab beriladi.

23. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish bilan bog'liq xarajatlar Bank boshqaruvi

qarori yoxud Bank boshqaruvi raisi yoki uning o‘rinbosarining farmoyishi bilan tasdiqlangan holda Bank mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

7-bob. Maxfiylik va kafolat

24. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan shaxsga doir ma’lumotlar uchinchi shaxslarga ularning roziligisiz oshkor qilinmasligi kafolatlanadi.

25. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida taqdim etilgan ma’lumotlar Bankning boshqa xodimlariga va (yoki) uchinchi shaxslarga xabar bergan shaxsning roziligisiz oshkor qilinmasligi ta’minlanadi.

26. Bank korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida o‘z vaqtida xabar berishni rag‘batlantiradi va huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarning himoyasini qonun doirasida ta’minlaydi.

27. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan Bank xodimiga nisbatan shu harakati uchun har qanday jazo choralari (tanbeh, ishdan bo‘shatish, lavozimini pasaytirish, mukofot pulidan mahrum qilish va h.k.) qo‘llashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan xodimga nisbatan xabar berganlik uchun har qanday jazo choralari qo‘llanilishi ushbu siyosatning buzilishi deb hisoblanadi va bu faktlar tasdiqlansa, bunda aybdor shaxslar intizomiy javobgarlikka tortiladilar.

28. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqidagi xabar tasdiqlanmasa, xabar bergan shaxsga nisbatan Bank tomonidan tazyiq o‘tkazilmaydi, ataylab yolg‘on xabar bergan hollar bundan mustasno.

8-bob. Hisobdorlik

29. Bankning Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati korrupsiyaga oid huquqbuzarlikka oid xabarlarga taalluqli bo‘lgan hisobotni har chorakda Bank kuzatuv kengashiga va (yoki) auditorlik va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasiga taqdim etadi va unda quyidagilar ko‘rsatiladi:

kelib tushgan xabarlar va ko‘rib chiqilgan xabarlar soni;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar tasdiqlangan xabarlar soni;

ko‘rib chiqish muddatlari buzilgan xabarlar soni;

xabarlarni ko‘rib chiqishning o‘rtacha davriyligi;

murojaatchilar tomonidan eng ko‘p foydalaniladigan aloqa kanallari va boshqa statistik ma’lumotlar.

30. Bankning Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati:

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar berish tartib-taomillarini takomillashtirish yuzasidan Bank boshqaruviga va kuzatuv kengashiga takliflar kiritadi;

mazkur siyosatni amalga oshirishda Bank xodimlariga maslahatlar beradi va boshqa yordam ko‘rsatadi;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqidagi xabarlarni to‘g‘ri, xolis, to‘liq va har tomonlama tekshirishni ta’minlaydi.

31. Bank xodimlari:

ushbu siyosatga rioya qilishlari va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatini xabardor qilishlari shart;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda o‘z takliflari bilan ishtirok etishi mumkin.

9-bob. Yakuniy qoidalar

32. Mazkur siyosat Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

33. Siyosat asosida qabul qilingan axborotlar, ma'lumotlar, o'tkazilgan suhbatlar va boshqa material hamda dalillar shakllanishidan qat'i nazar konfidensial ma'lumotlar toifasiga taalluqli bo'lib, O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi va "Tijorat siri to'g'risida"gi qonunlari asosida erkin tarqatilishi taqiqlanadi va himoyalanaadi.

34. Siyosat korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga kiritilgan o'zgarishlardan kelib chiqib qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining o'zgarishi natijasida ushbu Siyosatning ayrim bandlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid bo'lsa, ushbu Siyosatga o'zgartirishlar kiritilgunga qadar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Siyosatning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan qismiga amal qilinadi.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish
xizmati rahbari v.b.**

A. Xaitov